Xitoy va O‘zbekiston ilm-fanining hamkorlik aloqalari yangi rivojlanish bosqichida







Xitoyning O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi janob Yuy Szyun, Xitoy Fanlar akademiyasi vitse prezidenti prof. Zhang Yaping, Shinjon Ekologiya va geografiya instituti Shinjon bo‘limi direktori professor Zhang Yanming va boshqa mehmonlardan iborat delegatsiyasi Botanika institutiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida tomonlar o‘zaro manfaatli ilmiy aloqalarni rivojlantirish hamda yangi istiqbolli loyihalarni rejalashtirish maqsadida ekosistemalarni muhofaza qilish, biologik xilma xillikni saqlash, o‘simliklarni har tomonlama tadqiq etish masalalarini muhokama qilishdi.

Professor X. Shomurodov “Unique ecosystems and vegetation in Central Asia and Xinjiang” mavzusida, PhD, laboratoriya mudiri Z. Yusupov “Molecular phylogeny, evolutionary, history and taxonomy of key plant groups”, akademik K. Tojibayev esa “Plant Diversity, digitization, conservation, and popularization of scientific achievements” mavzularidagi loyihalar taklif etishdi, taqdimotlarida rejalashtirilayotgan loyihalarning amaliy va nazariy asoslariga to‘xtaldi.

Xitoy fanlar akademiyasi Shinjon Ekologiya va geografiya instituti va Botanika instituti o‘rtasida ilmiy hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, ilmiy axborot almashishni rivojlantirish, hozirgi kunda dolzarb va amaliy ahamiyati yuqori bo‘lgan fundamental va amaliy ilmiy loyihalarni hamkorlikda

bajarishga qaratilgan fikrlarni bildirishdi.

Shuningdek, o‘simliklar filogeniyasi, evolyutsion tarixi va taksonomiyasi borasidagi tadqiqotlarni, bioklimatologiya va iqlim o‘zgarishining biologik xilma-xillikka ta’sirini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni hamkorlikda bajarishga kelishib olindi.

Uchrashuv so‘ngida mehmonlar Milliy gerbariy fondidagi materiallar, noyob obyektlar bilan tanishishdi.